

Quyí Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari

Axmedova Maxliyo

UrDU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Quyí Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rayonning imkoniyatlarini to‘liq anglash, iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash maqsadida kelajakdagi istiqbollari haqida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Quyí Amudaryo iqtisodiy rayoni, tabiiy resurslar, qishloq xo‘jaligi, turizm, kichik sanoat zonalari, moderinizatsiya va diversifikatsiya

Пути эффективного использования природно-экономического потенциала Нижнеамударьинского экономического района

Ахмедова Махлиё

Магистрант 1 степени УрГУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути эффективного использования природно-экономического потенциала Нижнеамударьинского экономического района. При этом были разработаны предложения и рекомендации о дальнейших перспективах экономического района в целях полного понимания возможностей экономического района, обеспечения экономического роста.

Ключевые слова: Нижнеамударьинский экономический район, природные ресурсы, сельское хозяйство, туризм, малые промышленные зоны, модернизация и диверсификация.

Ways to effectively use the natural and economic potential of the Lower Amudarya economic region

Akhmedova Makhliyo

1st stage master's student of UrSU

Abstract: This article discusses ways to effectively use the natural and economic potential of the Lower Amudarya economic region. At the same time,

proposals and recommendations about the future prospects of the economic region were developed in order to fully understand the possibilities of the economic region, to ensure economic growth.

Key words: Lower Amudarya economic region, natural resources, agriculture, tourism, small industrial zones, modernization and diversification

Quyida Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning strategik ahamiyatga ega hududlaridan biri bo‘lib, hudud tabiiy resurslarining xilma-xilligi, unumdor tuproqlari, suv resurslari, shuningdek iqtisodiy ma‘daniy salohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalar yondashuvlar va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Bu borada iqtisodiyotning har bir jabhasiga turtki bo‘ladigan, hukumat islohotlarining ahamiyati beqiyosdir. 2017-2021-yillarga va keyinchalik 2021-2026 yillarga mo‘jallangan “Harakatlar strategiyasi” davlat dasturlarida bunday islohotlarini amalga oshirish, ayniqsa o‘z ifodasini topgan [1].

Viloyat, tuman va shaharlarni, kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish bo‘yicha davlat dasturlarida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratilgan:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash;
- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyaa va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish farqlarini kamaytirish;
- yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlari va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish [1].

Ushbu farmon ijrosi doirasida Quyida Amudaryo iqtisodiy rayon hududida amalga oshirilgan ishlar mintaqani kompleks rivojlanishidajuda muhim rol o‘ynadi.



Jumladan, iqtisodiy rayonning tabiiy salohiyatiga qaraydigan bo‘lsak quyidagi tabiiy resusrlarga boy:

- 1) Yer resurslari: Mintaqada unumdor yer maydonlari va o‘ziga xos iqlim sharoitlari bilan qishloq xo‘jaligi uchun qulay hisoblanadi. Ayniqsa, paxta, g‘alla, sabzovot, poliz mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi o‘rinda turadi.
- 2) Suv resurslari: Amudaryo va uning irmoqlari hududning asosiy suv manbai bo‘lib, qishloq xo‘jaligi va ichimlik suvi ta‘minotida muhim ahamiyat kasb etadi.
- 3) Foydali qazilmalar: Neft gaz, qurilish materiallari va boshqa foydali qazilmalar zahirasi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatiga nazar soladigan bo‘lsak:

- 1) Qishloq xo‘jaligi: Mintaqa aholisi qishloq xo‘jaligiga tayanadi. Sug‘orish texnologiyalarni yangilash va ekologik toza maxsulot etishtirish mintaqaviy raqobatdoshlikni oshiradi [3].
- 2) Sanoati: Neft-gaz sanoati, paxta tozalash korxonalarini, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati hudud iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohalarni diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish zarur.
- 3) Turizm: Xiva shahri va boshqa tarixiy- madaniy meros obidalari xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi. Eko-turizm va gastronomik turizmni rivojlantirish ham hudud salohiyatini kengaytiradi.

Mintaqada tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish yo‘llari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- ✓ Resurslarni oqilona boshqarish: Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va tuproq eroziyasini oldini olish choralarini ko‘rish zarur [3].
- ✓ Sanoat klasterini tashkil etish: Paxta etishtirish va uni qayta ishlashni bir tizimga birlashtirib sanoat klasterini tashkil etish mintaqa iqtisodiyoti uchun katta foyda keltiradi [2].
- ✓ Yashil texnologiyalarni joriy etish: Qayta tiklanadigan energiya (quyosh va shamol energiyasini) rivojlantirish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini yo‘lga qo‘yish muhimdir.
- ✓ Innovatsion qishloq xo‘jaligi: Tomchilatib sug‘orish, gidroponika va agrodronlardan foydalanish samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

- ✓ Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish: Hududni ichki va tashqi bozorlar bilan bogʻlaydigan transport tizimini takomillashtirish, ayniqsa, temir yoʻl va avomobil yoʻllarini modernizatsiya qilish lozim.
- ✓ Kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab quvvatlash: Mahallaiy aholini ish bilan taʼminlash va daromadlarini oshirish uchun kichik biznesni rivojlantirishga eʼtibor qaratish kerak

Xulosa qilib aytganda, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Oʻzbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Tabiiy va iqtisodiy salohiyatida samarali foydalanish uchun innovatsion yondashuvlar, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish zarur. Ushbu hududni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyoti va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 3-ILOVA
- 2.Oʻzbekiston Respublikasi statistika qoʻmitasi. Oʻzbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2022-yil yanvar-iyun) Toshkent-2022.
- 3.Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Babajonov A.R, Muqumov A.M, Sharipov S,R, ”Hududlarni rivojlantirish”(oʻquv qoʻllanma)

Research Science and Innovation House